



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2023-YIL — INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2023-yil 9-noyabr, № 238 (8581)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini
telefoningiz orqali skaner qiling.



IQTISODIY HAMKORLIK TASHKILOTINING TOSHKENT SAMMITI OLDIDAN SAMARALI MUZOKARALAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 8-noyabr kuni Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining o'n oltinchi sammitida ishtirok etish uchun mamlakatimizga tashrif buyurgan Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti bosh kotibi Xusrav Noziriy, Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Anvar ul-Haq Kakar, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov va Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdogan bilan uchrashuvlar o'tkazdi.



IHT bosh kotibi Xusrav Noziriy bilan uchrashuvda birlashma doirasidagi amaliy hamkorlikni yanada rivojlantirish, ushbu ko'p tomonlama tuzilmalar faoliyati samaradorligini oshirish masalalari ko'rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari o'zaro manfaatlilik hamkorlikni kengaytirish, eng avvalo, savdo, transport, investitsiyalar, innovatsiyalar, ekologiya, turizm sohalarida qo'shma loyiha va dasturlarni amalga oshirish uchun katta salohiyat mavjudligini qayd etdi.

Bosh kotib O'zbekiston IHT faoliyatida faol ishtirok etayotgani, ilk bor Toshkentda "Hamkorlikda iqtisodiy barqarorlik va taraqqiyot sari" shiori ostida o'tkaziladigan IHTning navbatdagi sammiti yuqori saviyada tayyorlangani

uchun samimiy minnatdorlik bildirdi.

Mamlakatimizning 2021-yilgi Ashxobod sammiti davomida ilgari surilgan tashabbuslari izchil amalga oshirilayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Uchrashuv chog'ida IHT davlatlari yetakchilarining bo'lajak Toshkent yig'ilishi kun tartibi yuzasidan fikr almashildi.

Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Anvar ul-Haq Kakar bilan uchrashuvda ikki tomonlama hamkorlikni, eng avvalo, savdo-iqtisodiyot, investitsiya va transport-kommunikatsiya sohalarida yanada mustahkamlashning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Turli darajalarda faol muloqot olib

borilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. O'zaro tovar ayirboshlash va yuk tashish hajmi yil boshidan buyon 40 foizga oshdi. To'qimachilik, kimyo, farmatsevtika va boshqa tarmoqlarda kooperatsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Yigirmata qo'shma korxona tashkil etildi.

2024-2025-yillarga mo'ljallangan Sanoat kooperatsiyasi dasturini tez fursatda qabul qilish, ishbilarmonlik aloqalarini rivojlantirish uchun savdo to'siqlarini bartaraf etish va qulay sharoitlar yaratish muhimligi ta'kidlandi.

Transafg'on temir yo'lini qurish loyihasini amalga oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Mintaqaviy kun tartibidagi masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov bilan uchrashuvda O'zbekiston bilan Qirg'iziston o'rtasidagi do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash masalalari ko'rib chiqildi.

O'zaro savdo hajmi jadal sur'atda o'smoqda, sanoat, energetika, qishloq xo'jaligi, transport va boshqa ustuvor yo'nalishlarda kooperatsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Tadbirlarga boy madaniy-gumanitar hamkorlik dasturi ro'yobga chiqarilmoqda.

O'zbekiston va Qirg'iziston yetakchilari oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish muhimligini qayd etdilar.

Davlat rahbarlari Markaziy Osiyo

mintaqasidagi yirik infratuzilma loyihalarini tez fursatda boshlash masalalariga alohida to'xtaldilar.

Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdogan bilan uchrashuvda O'zbekiston bilan Turkiya o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish va keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqildi.

O'zaro muloqot va almashinuvlar faol davom ettirilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Tovar ayirboshlash hajmi, to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlar soni, sayyohlar oqimi ortib bormoqda.

Mamlakatimizda Turkiyaning yetakchi kompaniyalari ishtirokida yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Yil boshidan 500

million dollardan ortiq to'g'ridan-to'g'ri sarmoyalar jalb qilindi, 200 dan ziyod yangi korxonalar tashkil etildi.

Savdo, sanoat, innovatsiyalar, energetika, transport, ta'lim, madaniyat, turizm va boshqa sohalaridagi qo'shma loyiha va dasturlarni jadallashtirish muhimligi ta'kidlandi.

Bo'lajak tadbirlar rejasi, shu jumladan, O'zbekiston — Turkiya Strategik hamkorlik kengashining navbatdagi yig'ilishiga tayyorgarlik ko'rib chiqildi.

Davlat rahbarlari mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati suratlari.

IHT bosh kotibi Xusrav NOZIRIY:

O'zbekistonning IHTdagi faol pozitsiyasi mamlakatning so'nggi yillardagi hayratlanarli rivojlanish bo'yicha sa'y-harakatlarining bir qismidir

Toshkentda bo'lib o'tayotgan Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (IHT) sammiti arafasida "Dunyo" AA muxbiri mazkur tashkilot Bosh kotibi Xusrav Noziriy bilan mazkur tuzilmani yanada rivojlantirish istiqbollari va ushbu jarayonda O'zbekistonning ishtiroki haqida suhbatlashdi.

Eksklyuziv intervyu

— Janob Noziriy, Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining Toshkentda bo'lib o'tadigan 16-sammitidan kutilayotgan natijalar va forum kun tartibidagi ustuvor maqsadlar haqidagi fikrlaringiz bilan o'rtoqlashsangiz?

— Rahmat. Avvalo, ta'kidlab o'tish joizki, IHTning 16-sammiti a'zo mamlakatlar davlat rahbarlari

ishtirokida Toshkentda o'tkazilishi biz uchun katta sharaftir.

O'zbekistonning IHTdagi faol pozitsiyasi mamlakatning so'nggi yillardagi hayratlanarli rivojlanish sa'y-harakatlarining bir qismidir. O'zbekistonning jahon va mintaqaviy obro'-e'tibori sezilarli darajada oshganidan, shuningdek, mamlakatning so'nggi iqtisodiy rivojlanishiga guvoh bo'lishdan,

uning istiqbolli ekanini ko'rishdan mamnunmiz.

Ushbu sammit mintaqaga ta'sir etayotgan muayyan xalqaro o'zgarishlar fonida o'tkazilmoqda. Shu ma'noda, sammit tashkilot faoliyatini tahlil qilish va kelgusidagi sa'y-harakatlarni yo'naltirish uchun yetakchilarimizni to'playdigan xalqaro forum sifatida yuksak ahamiyat kasb etadi. Sammitda IHT faoliyati muhokama qilinadi va savdo, energetika, transport, atrof-muhit, turizm, qishloq xo'jaligi, sanoat va "yashil" rivojlanishga oid ustuvor tarmoqlardagi mintaqaviy hamkorlikning holati ko'rib chiqildi.

Shuningdek, tadbir doirasida a'zo davlatlar rahbarlari samarali ikki

tomonlama hamkorlik uchrashuvlari va konstruktiv muhokamalar o'tkazishlariga ishonaman, bu ham mintaqadagi tinchlik, farovonlik va barqarorlikka katta hissa qo'shadi, deb umid qilaman.

— O'zbekiston 2022-yilda birinchi marta Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga raisligi qildi. Mamlakatimizning tashkilotga raisligi davrida qayd etilgan natijalarni qanday baholaysiz?

— Keyingi yillarda O'zbekiston mintaqaviy aloqalarni mustahkamlash maqsadida tashkilot bilan juda faol hamkorlik qilayotganini e'tirof etish lozim. Joriy yilning boshida, yanvar oyida Toshkentda

barcha a'zo mamlakatlar tashqi siyosat idoralari rahbarlari ishtirokida Tashqi ishlar vazirlari kengashining 26-yig'ilishi bo'lib o'tgani a'zo davlatlarning O'zbekistonga yuksak e'tibor qaratayotganidan dalolat.

2022-yilda, albatta, O'zbekiston raisligida IHT o'z oldiga qo'ygan maqsadlarni jadal sur'atda amalga oshirdi. O'zbekiston tomonidan hamkorlikning muhim yo'nalishlari bo'yicha bir qancha oliy darajadagi va vazirlar uchrashuvlari muvaffaqiyatli tashkil etildi. Bu esa a'zo davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni, xususan, transport va aloqa sohalaridagi hamkorlikni kuchaytirishda juda samarali natijalar berdi.



Forum

YURTIMIZ BIZNES SOHASIDA YIRIK XALQARO MAYDONGA AYLANDI

Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining XVI sammiti arafasida ishtirokchi davlatlarning biznes forumi o'tkazildi. Unda Ozarbayjon, Eron, Qozog'iston, Qirg'iziston, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston, Turkiyadan 300 dan ortiq delegatlar va 300 dan ziyod mahalliy biznes vakillari qatnashdi.

Ular IHT doirasidagi hamkorlikning holati, shuningdek, savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va faollashtirish istiqbollari muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, bugungi kunda O'zbekiston va IHT o'rtasidagi hamkorlik jadal rivojlanib, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan

ko'plab muhim loyihalar ustida ish olib borilmoqda.

Keyingi yillarda O'zbekiston va IHT hamkorlikda savdo-iqtisodiy sohada katta tajriba orttirdi, bu esa uzoq muddatli samarali hamkorlik uchun mustahkam poydevor yaratdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida

mamlakatimiz har tomonlama sheriklikni kengaytirishga munosib hissa qo'shgan holda, IHT a'zo davlatlari bilan munosabatlarni muvaffaqiyatli davom ettirmoqda.

Ma'lumki, savdo-iqtisodiy rivojlanish a'zo mamlakatlarning har tomonlama integratsiyasi uchun juda muhim sanaladi. Shu bois mintaqalararo savdoni ikki barobar oshirish orqali ayni yo'nalishda dunyo miqyosidagi ulushni ko'paytirish maqsad qilingan.



Muloqot

IQLIM O'ZGARISHI YO'NALISHIDAGI LOYIHALAR KENGAYTIRILADI

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva mamlakatimizda amaliy tashrif bilan bo'lib turgan BMT Bosh kotibining yordamchisi, Ko'kalamzorlashtirish va o'rmonlar bo'yicha Global forum direktori Djulyetta Biao Kudenukpo bilan uchrashdi.

Muloqotda O'zbekiston va BMT o'rtasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish, xususan, ilm-fan, sog'liqni saqlash, ekologiya, iqlim o'zgarishi, madaniyat va ta'lim yo'nalishlaridagi loyihalarni amalga oshirish masalalari atroflicha muhokama qilindi.



E'tirof

AQSH MEHNAT VAZIRLIGI O'ZBEKISTONDA BOLALAR MEHNATIGA BARHAM BERISH BORASIDA ERISHILGAN YUTUQLARNI YUQORI BAHOLADI

AQSH Mehnat vazirligida "2022-yilda bolalar mehnatiga barham berish bo'yicha davlatlarning sa'y-harakatlari to'g'risidagi yillik hisoboti" mavzuida brifing bo'lib o'tdi.

Mamlakatimizda bolalar mehnatiga barham berish sohasidagi islohotlar muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganini inobatga olib, AQSH Mehnat vazirligi ushbu tadbirga O'zbekiston elchisini taklif qildi. Diplomatiya o'z nutqida ishtirokchilarga keyingi yillarda O'zbekistonda qonun hujjatlarini xalqaro standartlarga moslashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, yangilangan Konstitutsiyada majburiy mehnatga qarshi kurash bo'yicha kiritilgan normalar, 2022-yilgi paxta terimining mustaqil monitoring natijalari va mamlakatimizda bolalar mehnatiga barham berish sohasida hayotga tatbiq etilayotgan ijtimoiy dasturlar haqida batafsil ma'lumot berdi.

AQSH savdo vazirining o'rinbosari Tea Li o'z ma'rui-

zasida 2022-yilda 131 davlatdan faqat 4 ta mamlakat, ya'ni O'zbekiston, Argentina, Kolumbiya va Kot-d'Ivuar-ga "Significant Advancement" ("Sezilarli taraqqiyot") maqomi berilganini ta'kidladi.

AQSH Mehnat vazirligi ma'lumotiga ko'ra, mazkur baholash mezonida bolalar mehnatining eng yomon shakllarini taqiqlovchi qonunlar va me'yoriy hujjatlarining mavjudligi, shikoyatlarni ko'rib chiqish va bunday huquqbuzatliklarni tekshirishning ijro hamda institutsional mexanizmlari, shuningdek, bolalar mehnatining eng og'ir shakllariga jalb etilishining oldini olish bo'yicha ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish va bu boradagi davlat siyosatining samaradorligi hisobga olindi.

"Dunyo" AA.
Vashington

IHT BOSH KOTIBI XUSRAV NOZIRIY:

Oʻzbekistonning IHTdagi faol pozitsiyasi mamlakatning soʻnggi yillardagi hayratlanarli rivojlanish boʻyicha saʼy-harakatlarining bir qismidir

Maʼlumki, Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2022-yil IHT makonida “Oʻzaro bogʻliqlikni mustahkamlash yili” deb eʼlon qilingani yuqori baholandi.

Shuningdek, Oʻzbekiston oʻz raisligi davrida xalqaro olim va ekspertlar ishtirokida ekologik hamkorlik boʻyicha “Yuqori darajadagi muloqot platformasi”ni tashkil etishga rahbarlik qildi. Biz Oʻzbekistonning tashkilotning atrof-muhitni muhofaza qilish tizimini boshqarishdagi faol pozitsiyasini, shuningdek, biologik xilmaxillik, yerlarning degradatsiyasi va iqlim oʻzgarishi boʻyicha yangi loyihalarni amalga oshirishdagi tashabbuskorligini yuqori baholaymiz.

Oʻzbekiston oʻz raisligi davrida turizm sohasida ham juda faol boʻldi. 2022-yilda IHT turizm vazirlarining IV yigʻilishi Oʻzbekiston tomonidan samarali tashkil etildi. Bundan tashqari, 2022-yilda Ozarbayjon, Eron, Pokiston, Tojikiston, Turkiya, Turkmaniston va Oʻzbekistondan 242 turoperator va sayyohlik agentliklarini birlashtirgan IHT Turoperatorlari tarmogʻi tashkil etildi. Oʻzbekiston oʻzining buyuk tarixiy va tabiiy neʼmatlari bilan alohida ajralib turadi. Shu bois biz Oʻzbekistonni Shahrisabz shahri “2024-yilda Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti turizm poytaxti” etib tanlangani bilan tabriklaymiz.

— IHTning asosiy maqsadi aʼzo davlatlar oʻrtasida savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, transport va logistika, shuningdek, turizm sohalarda hamkorlikni rivojlantirishdan iborat. Ushbu sohalarda keyingi yillarda erishilgan qaysi natijalarni alohida taʼkidlagan boʻlardingiz?

— Savdo sohasida IHT, birinchi navbatda, imtiyozli savdo tizimi orqali savdoni erkinlashtirish, osonlashtirish va ustuvorliklarimiz asosida ragʻbatlantirishni koʻzda tutadi. Asosan, eksportga yoʻnaltirilgan siyosatni oʻz ichiga olgan bizning yondashuvimiz mintaqaga savdo oqimlarini jalb qilish va koʻpaytirish, biznes yuritish xarajatlari va vaqtni qisqartirish, mintaqaning jahon bozoriga ulushini oshirish va yakuniy maqsad IHT mintaqasining savdo profilini oshirishga qaratilgan.

Biz energetika sohasida barqaror va samarali energiya manbalariga oʻtish muqarrar ekanligini tan olamiz. Shu nuqtayi

nazardan, Bokuda IHT “Toza” energiya markazining ochilishi muhim qadam boʻldi. Ushbu markaz energetika sohasidagi hamkorlik va mintaqadagi faoliyatni kuchaytiradi. Energetika sohasida yana bir eng muhim loyiha IHT mintaqaviy elektr energiyasi bozorini tashkil etishdir. Bu mintaqadagi ilgʻor va integratsiyalashgan elektr energiyasi bozori va infratuzilmasiga olib keladigan tegishli energiya savdosi uchun mintaqaviy “soyabon” yaratishga qaratilgan. Biz uni erta ishga tushirish uchun Energiya xartiyasi hamda BMTning Osiyo va Tinch okeani boʻyicha Iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi (UNESCAP) bilan hamkorlik qilmoqdamiz.

Oʻzaro bogʻliqlik kontekstida biz dengizga chiqishimkon boʻlmagan mamlakatlarni kuchli ichki mintaqaviy va mintaqalararo aloqalarga ega boʻlishiga yordam berishga intilamiz. Shu maqsadda global hamkorlarimiz, eng muhimi, BMTning tegishli agentliklari bilan sheriklikni davom ettiraymiz. Oʻzaro bogʻliqlik borasidagi saʼy-harakatlarimiz, jumladan, mintaqaning sharqiy qismida IHT havo markazini ochish, turli yoʻlaklarni, jumladan, Transkaspiy va Olmaota — Tehron — Istanbul yoʻlaklarini rivojlantirish, shuningdek, Islomobod — Tehron — Istanbul yoʻnalishini kengaytirishdan iborat. Bolgariyaga temir yoʻl koridori — bu IHTning Janubiy Osiyoni temir yoʻl orqali Yevropa bilan bogʻlaydigan ilk tashabbusidir.

Turizm, oziq-ovqat xavfsizligi va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish boʻyicha qator muhim tashabbuslar ilgari surildi. Xususan, IHT turizm boʻyicha harakatlar rejai va IHT turizm poytaxtlarining muvaffaqiyatli konsepsiyasi, Oziq-ovqat xavfsizligi boʻyicha IHT mintaqaviy dasturi, IHTning Oziq-ovqat xavfsizligi boʻyicha mintaqaviy muvofiqlashtirish markazi dasturga asoslangan tashkilotdan oʻzini oʻzi taʼminlaydigan institutga aylantirilishi va xalqaro olim hamda ekspertlar ishtirokida IHTda atrof-muhitni muhofaza qilish boʻyicha hamkorlik yuzasidan yuqori darajadagi muloqot platformasi shakllantirildi.

— Transport va logistika IHT doirasida ustuvor sohaga aylanib bormoqda. Keling, bu boradagi hamkorlikning holati va istiqbolari haqida gaplashsak.

— Oʻzaro bogʻliqlik va BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiq, biz



mintaqada konsolidatsiyalashgan transport infratuzilmasini rivojlantirishga eʼtiborimizni qaratdik. Tashkilot nizomini ishlab chiqish, qonunchilik bazasini yaratish, xalqaro standart tartib va konvensiyalarini amalga oshirish, infratuzilmani rivojlantirish, salohiyatni oshirish, texnik hamkorlik, muvofiqlashtirish mexanizmi hamda tegishli xalqaro hamkorlar va banklar bilan munosabatlarni oʻz ichiga olgan yaxlit yondashuvni qabul qildi.

Shu nuqtayi nazardan, 2022-yilning IHT makonida “Oʻzaro bogʻliqlikni mustahkamlash yili”, 2023-yilning esa “Yashil” oʻtish va oʻzaro bogʻliqlik yili” deb eʼlon qilinishi mintaqada transport tizimini rivojlantirish muhimligini yanada yaqqol koʻrsatadi. Darhaqiqat, transport va logistika sohasi bugungi kunda mintaqaviy hamkorlik kun tartibimizning eng muhim sohasidir.

Maqsadlarimizni amalga oshirishda 2-3-noyabr kunlari Toshkent shahrida transport vazirlarining 12-yigʻilishi boʻlib oʻtdi, unda mintaqaviy aloqalarni kengaytirish boʻyicha masalalar yuzasidan umumiy tushuncha va kelishilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish istagi paydo boʻldi.

Xususan, IHT tranzit transport boʻyicha asosiy kelishuv tashkilot doirasida transport aloqalarini kengaytirish siyosatining maksimal tarkibiy qismlarini qamrab oluvchi oʻzaro bogʻliqlik borasidagi saʼy-harakatlarimizning asosiy manbai hisoblanadi. Ushbu kelishuv Muvofiqlashtiruvchi kengash va texnik qoʻmitalar orqali aʼzo davlatlar oʻrtasidagi aloqa boʻyicha hamkorlikni tartibga solish va mustahkamlashga intiladi.

Biz, shuningdek, BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi bilan Transkaspiy va Olmaota — Tehron — Istanbul yoʻlaklari boʻyicha muvofiqlashtirish qoʻmitasi doirasida ham hamkorlik qilamiz.

Transport va ulanish sohasidagi boshqa muhim tadbirlar sifatida ikkita muhim yangi

yoʻlakni, yaʼni Qirgʻiziston — Oʻzbekiston — Turkmaniston — Eron va Tojikiston — Oʻzbekiston — Turkmaniston — Eron — Turkiya koridorlarini tashkil etish va yana qator tadbirlarni sanab oʻtish mumkin.

— Oʻzbekistonning IHTdagi rolini qanday baholaysiz?

— Yuqorida aytib oʻtganimdek, Oʻzbekiston IHT doirasida juda muhim davlatdir. Tashkilotga aʼzo mamlakatlar Oʻzbekistonning 2022-yilda raisligi davrida IHTning mintaqadagi oʻzaro taraqqiyot va farovonlik kun tartibidagi tashinga loyiq roli va mukammal boshqaruvini munosib ravishda eʼtirof etadi.

Oʻzbekistonning geografik oʻrni Markaziy Osiyoni bogʻlovchi nuqta sifatida unga mintaqani bogʻlashda juda muhim rol oʻynashi va atrofidagi mamlakatlar taraqqiyotiga hissa qoʻshishi uchun muhim imkoniyat yaratadi.

Oʻzbekistonning IHTdagi oʻrni ortib borayotgani, ayniqsa, raislik yillarida mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish jarayonini olgʻa surish va qoʻllab-quvvatlashda, ayniqsa, muhim boʻldi. Tashkilot Oʻzbekistonning IHT faoliyatidagi roli ortib borayotganini, bu tuzilmaning oʻsishi va rivojlanishiga juda katta hissa qoʻshganini mamnuniyat bilan qayd etadi.

Xususan, IHT faoliyati 2022-yilda oʻzaro aloqalarni mustahkamlash mavzuiga muvofiq mintaqada bogʻliqlik maqsadlarini imkon qadar amalga oshirishga qaratilgan edi. Shu munosabat bilan IHT kotibiyati mintaqaviy bogʻliqliklarga bevosita hissa qoʻshadigan yangi tashabbuslarga ustuvor ahamiyat qaratdi. Bular Tojikiston — Oʻzbekiston — Turkmaniston — Eron — Turkiya multimodal koridori va Qirgʻiziston — Oʻzbekiston — Turkmaniston — Eron — Turkiya yoʻlaklari boʻlib, mintaqadagi transport aloqalarining rivojlanishiga hissa qoʻshadi.

Havo aloqasi ham mamlakatlar va mintaqamiz iqtisodiy oʻsishiga katta hissa qoʻshganligi sababli, tashkilot Markaziy Osiyodagi IHT mintaqaviy markazi konsepsiyasini ham ishlab chiqdi. Umid qilamanki, bunday havo xabini tashkil etishga boʻlgan qiziqish ortib boradi va toʻgʻri koʻrib chiqiladi.

Biz Oʻzbekistonning barcha ustuvor jabhada mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish boʻyicha umumiy ishimizga qoʻshayotgan hissasidan juda xursandmiz.

“Dunyo” AA.



KOʻP QIRRALI SHERIKLIK VA PARLAMENTLAR IMKONIYATLARI

Kecha Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Yaponiyaning yangi tayinlangan Oʻzbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Takashi Xatori bilan uchrashdi.

Unda ikki mamlakat oʻrtasidagi azaliy doʻstlik va yuksak darajadagi diplomatik munosabatlarni, turli soha va tarmoqlardagi samarali aloqalarga katta eʼtibor qaratildi.

Xususan, elchi T. Xatori Oʻzbekiston keyingi yillarda tashqi siyosatda faollik koʻrsatib, qoʻshni davlatlar bilan munosabatlarni mustahkamlash orqali Markaziy Osiyoda tinchlik muhiti yanada mustahkamlanishiga xizmat qilayotganini qayd etdi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Yaponiyaga amalga oshirgan rasmiy tashrifi ikki tomonlama munosabatlarni rivojida yangi davrni boshlab bergani ham alohida taʼkidlandi.

Muloqotda iqtisodiy, investitsiyaviy, ilmiy-texnikaviy va madaniy-gumanitar sohalarda oʻzaro hamkorlikni rivojlantirish hamda parlamentlararo aloqalarni yanada mustahkamlash masalalari diqqat markazida boʻldi.

Oʻzbekiston va Yaponiya oʻrtasidagi hamkorlikni rivojlantirishda savdo, sarmoyaviy va sanoat kooperatsiyasini kengaytirish ustuvor yoʻnalish hisoblanadi. Oxirgi 6 yilda yapon kapitali ishtirokidagi korxonalar soni 8 baravar oshdi. Yaponiyaning “Mitsubishi”, “Marubeni”, “Isuzu” va boshqa kompaniyalari hamda “JICA” xalqaro hamkorlik agentligi ishtirokida sanoat, tabiiy resurslar va taʼlim sohalaridagi loyihalar hayotga izchillik bilan tatbiq etilayotir.

“Xalq soʻzi”.

YURTIMIZ BIZNES SOHASIDA YIRIK XALQARO MAYDONGA AYLANDI

Mazkur anjuman savdo siyosatini liberallashtirish va uygʻunlashtirish, biznes yuritish uchun xarajatini kamaytirish, moliya infratuzilmasi va institutsional salohiyatni rivojlantirish, savdo tartib-tamoyilini soddalashtirishga xizmat qiladigan yirik tashabbuslar maydoniga aylanishi kutilyapti.

Tadbirni Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti bosh kotibi oʻrinbosari Kashif Zamin kirish soʻzi bilan ochdi. U oʻz soʻzida ishbilarmon doiralarning oʻzaro manfaatli sheriklikni yoʻlga qoʻyishga qaratilgan intilishlariga yuqori baho berdi.

Oʻzbekiston Savdo-sanoat palatasi rahbari Davron Vahobov oʻz soʻzida forumning

ahamiyatiga toʻxtalar ekan, ushbu tadbir Oʻzbekiston viloyatlari va sohalarining salohiyatini namoyish etish, IHTga aʼzo mamlakatlar kompaniyalarini Oʻzbekistondagi yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirishga jalb qilish, Oʻzbekiston va IHT aʼzo davlatlari Savdo-sanoat palatalari oʻrtasida institutsional aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilishini qayd etdi.

Tadbirda taʼkidlanganidek, mamlakatimizning iqtisodiy hamkorlik tashkiloti doirasidagi aloqalari sezilarli darajada faollashgan. 2021-yil yurtimizning tuzilma tarkibidagi mamlakatlar bilan tovar aylanmasi 35,1 foiz oʻsib, 11,2 milliard dollarga

yetgan. 2022-yil koʻtarilish tendensiyasi davom etdi va mahsulot ayirboshlash koʻrsatkichi 10,4 foiz oʻsib, 12,4 milliard dollarni tashkil qildi. Respublika tashqi savdosida IHT ulushi 24,7 foiz. Eʼtiborli jihati, 5,75 milliard dollarlik eksport hajmi 2021-yildagiga nisbatan 6,3 foiz yuqori. Oʻtgan yildagi umumiy eksportning qariyb uchdan bir qismi IHT mamlakatlari hissasiga toʻgʻri keldi. Yurtimizning tashkilotga aʼzo davlatlar bilan savdo aylanmasi 1,13 trillion dollardan oshdi.

Joriy yilning 9 oyi koʻrsatkichini kuzatsak, hamkorlik sezilarli darajada kengayganiga guvoh boʻlamiz. Yana raqamlarga

murojaat qilamiz: hisobot davrida IHT doirasida tovar aylanmasi 9,2 milliard dollarni, aʼzo mamlakatlarining Oʻzbekiston umumiy tovar aylanmasidagi ulushi 20,5 foizni tashkil etdi.

Ishirokchilar bu kabi tadbirlar IHTga aʼzo davlatlar oʻrtasidagi konstruktiv hamkorlikning muvaffaqiyatli rivojlanishiga, yuksalish yoʻlidagi toʻsiqlarni olib tashlashga hamda aloqalarni yanada rivojlantirish orqali dunyoda doʻstlik va birodarlikning munosib namunasini yaratishga imkon berishini taʼkidladi.

Biznes forumida sanoat klasterlarini hamkorlikni rivojlantirish, sanoat zanjirini shakllantirish, yonilgʻi-energetika



sohasida yirik loyihalarni birgalikda amalga oshirish, transport sanoatidagi hamkorlik, agrosanoat tarmogʻida kichik va oʻrta biznes vakillarining aloqalarini kengaytirish, zamonaviy axborot texnologiyalari va savdo-iqtisodiy munosabatlarni raqamlashtirish masalalari ham muhokama qilindi.

Forum doirasida aralash formatda ikki tomonlama uchrashuvlar tashkil etilib, ular davomida yonilgʻi-energetika kompleksi, kimyo sanoati, qishloq xoʻjaligi, oziq-ovqat va toʻqimachilik sanoati, savdo va boshqa sohalardagi ishbilarmonlik aloqalarini rivojlantirish uchun galdagi amaliy ishlar belgilab olindi.

Iqtisodiy va transport bogʻliqligini kuchaytirish, innovatsiya, raqamli transformatsiya va “yashil” iqtisodiyotni ustuvor yoʻnalishlar sifatida belgilash kabi tashabbuslarni ilgari surish bilan namoyon etdi.

Oʻzbekistonning global va mintaqaviy darajadagi sammitlarga mezbonligi keng makondagi hamkorlikni sezilarli darajada kengaytirmoqda. Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining Toshkent shahrida boʻlib oʻtgan beshinchi biznes forumi ham mintaqaviy oʻzaro bogʻliqlikni yanada mustahkamlash masalalariga alohida eʼtibor qaratilishi bilan ajralib turadi. Zero, 2022-yil Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan “IHTda oʻzaro bogʻliqlikni mustahkamlash yili” deb eʼlon qilingani bejiz emas, albatta. Mazkur qaror tashkilot doirasidagi hamkorlikka yangicha surʼat baxsh etdi. Oʻziga xos tarix, madaniyatga ega mintaqamiz ayni payt yanada jipslashib, integratsiyalashmoqda. Bu borada Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklif va tashabbuslari juda muhim rol oʻynamoqda. Shuningdek, Toshkentda oʻtgan biznes forumi IHTga aʼzo davlatlardagi investitsiyaviy muhit haqida batafsil maʼlumot ulashish, ishbilarmonlarning uchrashuvlarini tez-tez tashkil etishga kelishib olishda muhim platforma boʻldi.

“Xalq soʻzi”.

IQLIM OʻZGARISHI YOʻNALISHIDAGI LOYIHALAR KENGAYTIRILADI

BMT Oziq-ovqat va qishloq xoʻjaligi tashkilotining “Oʻzbekiston Respublikasida iqlim oʻzgarishiga qarshi kurashish boʻyicha milliy harakatlarni kuzatish va texnik yordam koʻrsatish boʻyicha integratsiyalashgan va kengaytirilgan shaffoflik tizimini yaratish salohiyatini oshirish” loyihasi hayotga samarali tatbiq etilmoqda.

Uchrashuvda iqlim oʻzgarishiga qarshi kurashda uning bolalar, yoshlar va ayollarga taʼsirini hisobga olgan holda yangi loyihalarni roʻyobga chiqarish, bunda “yashil” taʼlimni rivojlantirish hamda zarur taʼlim resurslarini yaratish, iqlim oʻzgarishiga qarshi kurashishda bolalar, yoshlar va ayollarning saʼy-harakatlarini faollashtirish yuzasidan ham fikr almashildi.

“Xalq soʻzi”.

Ijtimoiy himoya

KOʻMAKKA MUHTOJ OILALAR FARZANDLARI DOIM EʼTIBORDA

Oʻzbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasining Qashqadaryo viloyati kengashiga bugungi kunda jami 1157 ta korxona va tashkilotda mehnat qilayotgan qariyb 630 ming nafar xodim aʼzo. Kengash tomonidan ushbu xodimlarning mehnatga oid hamda boshqa ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida tizimli ishlar amalga oshirib kelinaypti.

Uyushmaga aʼzo korxona va tashkilotlardagi boshlangʻich kasaba uyushma qoʻmitalari tomonidan ham xodimlarning mehnat huquqlarini himoya qilish, dam olishi va salomatligini tiklashi uchun shart-sharoitlari yaratish, kam taʼminlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning sayohatlarini tashkil etish, ularga moddiy koʻmak koʻrsatish borasida qator choralar koʻrilyapti.

Xususan, joriy yilning may oyida Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat markazi Qashqadaryo viloyati boʻlimi boshlangʻich kasaba uyushma qoʻmitasi tashabbusi bilan Kitob tumanidagi Makrid, Kasbi tumanidagi Gʻalaba hamda Gʻuzor tumanidagi Batosh mahallalarida istiqomat qilayotgan ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar

farzandlarining Buxoro shahriga sayohati uyushtirildi.

— Bu sayohatdan juda katta taassurot oldim, — deydi Gʻuzor tumanining Batosh mahallasida yashovchi Marjona Qodirova. — Biz Buxorodagi koʻplab tarixiy obidalar bilan tanishdik. Ular haqida avval kitoblarda oʻqigan boʻlsak, endi oʻz koʻzimiz bilan koʻrish imkoniga ega boʻldik. Buning uchun tashkilotchilarga oʻz minnatdorligimni bildiraman.

Sayohat yorqin taassurotlarga boy oʻtdi. Yoshlar koʻhna va navqiron shaharning tarixiy majmualari, bebaho yodgorliklari xususida keng maʼlumot va aniq tasavvurga ega boʻlishdi.

Jahongir BOYMURODOV (“Xalq soʻzi”).

“Yashil makon” umummilliy loyihasi — amalda

VOHAMIZNI BOG'LARGA BURKAYMIZ

Bundan bir necha yillar muqaddam Qoraqalpog'iston, ayniqsa, uning shimoliy hududlarida yashil va ko'kalamzor hududlar kam uchardi. Tumanlararo yo'llarning bo'ylarida saksovul, yulg'un kabi cho'l daraxtlari, aholi istiqomat qiladigan mahallalarda esa siyrakkina va sanoqlik turdagi daraxtlar bo'lardi xolos. Lekin bu holatga hech kim ajablanmas, aksincha, buni dengiz chekinganidan keyingi suvsizlik, qurg'oqchilik, yerning sho'rlanishi, ekologiyaning yomonlashuvi va hokazo sabablar bilan bog'lashardi.

Orol dengizi inqirozi oqibatlarini yumshatish borasida ko'rilgan qator choralar ham samarasiz bo'lib chiqqanidan keyin odamlarda kelajakka ishonchsizlik, hafsalasizlik, umidsizlik boshlangani ham haqiqat.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan Orol dengizining qurigan tubida yashil qoplamalar barpo etish g'oyasi va yoppasiga boshlangan safarbarlik barchani bu mudroqlikdan uyg'otdi, desak, mulbog'la bo'lmaydi. Sal o'tmay Orol tubidagi qumliklar o'rnida gektar-gektar yashil qoplamalar paydo bo'ldi. Bu aholining ko'nglida tabiatning yana jonlanishi, atrof-muhit o'nglanishiga nisbatan umid va ishonchni paydo qildi.

Yurtboshimizning Orol dengizining qurigan tubini yashil makonga aylantirish borasidagi islohotlari, dunyoning yuksak minbarlarida mintaqamizda ekologik barqarorlikni saqlash bo'yicha ilgari surgan tashabbus va g'oyalari xalqning ko'nglidagi ishonchni yanada ovlantirdi.

Davlatimiz rahbari yaqinda bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqida ham sayyoramiz miqyosida uchta inqiroz, ya'ni iqlim o'zgarishi, bioxilmaxillik yo'qolishi va atrof-muhit ifloslanishi kuchayayotganini alohida ta'kidlab o'tdi. Albatta, bular insoniyatning sog'lom hayot kechirishi uchun o'ta muhim bo'lgan omillardir.

“Yashil makon” umummilliy loyihasi esa mamlakatimizning boshqa hududlariga qaraganda Qoraqalpog'iston uchun juda muhim edi. Chunki Orol dengizi inqirozi natijasidagi ekologik xavfning oldini olish va yumshatishda yashil hududlarni ko'paytirish, ko'kalamzorlashtirishning o'рни beqiyos.

Mazkur loyiha sabab keyingi ikki yil davomida har bahor va kuzda yashil hududlar kengayib bordi. Yurt yashillikka burkangan obod makonga aylanayotganini har bir qoraqalpog'istonlik his qila boshladi. Shu bois ham xalqimiz 25-oktyabrdan 1-dekabrga qadar yurtimizda “Kuzgi daraxt ekish mavsumi” deb e'lon qilinganini zo'r mamnuniyat bilan qo'llab-quvvatlayapti.

“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida daraxt ekish ishlari barcha tuman va shaharlarimizda hamjihatlik bilan davom etayotir. Loyiha boshlangan vaqtdan buyon o'tgan ikki yil davomida ushbu harakat doirasida 1,2 ming gektardan ortiq yashil bog' va jamoat parklari, 1 mln. gektardan ziyod yashil hudud va qoplamalar barpo etildi.

Qoraqalpog'istonda ham xuddi shunday manzara namoyon bo'lmoqda. Tahlil qiladigan bo'lsak, mazkur loyiha doirasida 2021-yil kuz oylarida 6,4 mln. tup ko'chat ekilgan bo'lsa, 2022-yil bahor va kuz mavsumida 14 mln., 2023-yil bahorda 8,8 mln. tup mevali, manzarali daraxt va buta ko'chatlari ekildi. Shu yil kuz mavsumi uchun esa 5 mln. 950 ming tup ko'chat ekish manzilli dasturi tasdiqlandi. Bunda asosiy e'tibor har bir hududning tabiiy-iqlim sharoitlarini hisobga olishga qaratilgani e'tiborga molik.

Shuningdek, shahar va tumanlarda 16 ta “Yashil bog'lar” va 17 ta “Hokimlik bog'i” barpo etish rejalashtirilgan. Albatta, jarayonda eng muhim masalalardan biri — o'z vaqtida ko'chat yetkazib berish. Bu masala bo'yicha ham mutasaddilar belgilangan, ya'ni mas'ul vazirlik va idoralar, ko'chat yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari va xususiy tadbirkorlar tomonidan ko'chatlar peshma-pesh yetkazib berilayotir. Quvonarlisi, aholi tomonasida yetishtirgan ko'chatlarini ham yaratilayotgan yashil maydonlarga o'zlari olib borib ekmog'da. Endilikda qayrag'och, terak, jiyda, tut, zarang, uzum va boshqa mevali daraxtlar bilan bir qatorda yapon soforasi, katalpa, shumlot, gledichiya, aylant, akatsiya, virgin archasi, Sharq tuyasi kabi daraxtlar ham yurtimizning ko'rkiga ko'r'k qo'shib turadi.

Ayni paytda umummilliy loyiha doirasida mahallalar, ko'cha-xiyobonlarga va xonadonlar atroflariga daraxt ko'chatlarini ekish tadbirlari jadal davom etayotir. Nuroniylar va yoshlarimiz “Yashil makon” umummilliy harakatini qo'llab-quvvatlab har bir oila eng kamida uch tupdan, korxona, tashkilotlar esa o'n besh tupdan daraxt ko'chatini ekish tashabbusini ilgari surmog'da. Bundan tashqari, respublikamiz tumanlaridagi 5 mingdan ortiq fermer, 16 mingdan ziyod dehqon xo'jaliklari hamda 342 mingdan ziyod tomonqa yer egalari ko'chat ekib, bog' yaratishga o'z hissasini qo'shishga intilmog'da.

Hozirgi vaqtda Qoraqalpog'istonning bir nutqasida “Onalar bog'i” tashkil etilayotgan bo'lsa, ikkinchisida “Mahalla bog'i”, yana bir tomonda esa “Yoshlar bog'i” bunyod etilmog'da. Masalan, Nukus shahrining janubiy darvozasi hisoblangan, temir yo'l va avtotransport serqatnov bo'lgan magistrat yo'lining ikki tomoni yillar davomida abgor ahvolga kelib qolgan edi. To'g'ri, bu yerga ilgari ham ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish bilan bog'liq ommaviy tad-



birdalar ko'chatlar ekilgan. Ammo ular unib-o'smagan, sababi, buning uchun sharoit yaratilmagan.

Endi esa Berdaq nomidagi Qoraqalpog' davlat universiteti tomonidan ushbu magistrat yo'l bo'yidan 3,2 gektar maydon yer tanlab olingach, avvalo, bu yerda tozalash va tekislash ishlari olib borildi. Qum va shag'aldan iborat maydonda daraxt o'sishi uchun sharoit yaratish maqsadida tuproq va o'g'itlar tayyorlandi. Ayni chog'da manzara butunlay o'zgarmog'da — universitet professor-o'qituvchilari, talaba-yoshlari shijoat bilan ishga kirishgan.

— Davlat rahbari o'zi ko'chat ekib, ibrat ko'rsatganidan ruhlanib ketdik, — deydi “Nuroniy” jamg'armasining Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'limi raisi Tursunbay Abdugapparov. — Bir necha kundan beri yoshlar bilan bahamjihat bu yerni tekislab, ko'chat o'tqazyapmiz. Ilgari ko'chatlar ekilib, keyin qarovsiz qoldirdi. Endi unday bo'lmaydi. Chunki bugun yerning va har bir ko'chatning egasi bor. Bu bog' tomchilatib sug'orish texnologiyasi asosida sug'oriladi. Prezidentimiz biz, nuroniylarning “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasidagi ishlarda boshqalarga o'rnak ko'rsatishimizga katta ishonch bildirdi. Biz bu ishonchni oqlaymiz, albatta.

Belgilangan rejaga ko'ra, daraxt ko'chatlarini avtomobil va temir yo'llar bo'yilari, qishloq xo'jaligi ekin yerlari, dala chetlari, himoya o'rmonzorlari, o'rmon fondi yerlari, ijtimoiy soha muassasalari, korxonalar va xizmat ko'rsatish shoxobchalari, mahalla va ovul fuqarolar yig'inlari hududlarida ekish nazarda tutilgan. Bundan tashqari, yangidan tashkil etiladigan yashil bog'lar, tuman-shahar hokimligi bog'lar, “yashil belbog'lar” bu rejaga kiritilgan.

— “Onalar — yashil makon uchun” shiori ostida xotin-qizlar hamjihatlikda ko'chat ekyapmiz, — deydi To'rtko'l tumani oila va xotin-qizlar bo'limi rahbari, hokim o'rinbosari Inobat Jumaboyeva tumanning “Oqbo'shli” ovulida “Onalar bog'i”ni barpo etish jarayonida. — Mahallalarda bunday bog'larni tashkil etishda “Oqila ayollar” harakati, ko'chaboshi ayollarning ham munosib o'rimi bor. Endigi vazifamiz — ana shunday xayrli ishlarni xalqimiz orasida keng

targ'ib qilib, o'lkamizni bog'u bo'stonga aylantirishda faollik ko'rsatish.

“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasidagi ko'chat ekish ishlari qoraqalpog'istonlik yoshlar alohida qiziqish va ishtiyoq bilan qatnashmog'da. Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Nukus filiali hududi atrofiga daraxt va buta ko'chatlarini ekish aksiyasidagi ko'tarinkilik bu fikrimizga yorqin misol. Tadbir doirasida 200 tup manzarali va mevali daraxt ko'chatlari o'tqazildi. Bundan tashqari, ta'lim dargohi hududi chiqindilardan tozalaniib, obodonlashtirish ishlari olib borildi.

— Yurtimiz bo'ylab boshlangan bu tashabbus ekologiyani barqarorlashtirishi, havoning tozaligini ta'minlash bilan bir qatorda qalbimizni ham ezigulikka burkamog'da. Shu bois ham yoshlarimiz astoydil o'z hissasini qo'shishga bel bog'lagan, — deydi filialning Yoshlar bi-lishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i A. Seytkamalov.

Darhaqiqat, bugun “Yangi O'zbekiston — yashil makonda birga yashaylik” degan ezu g'oya butun xalqimizni tabiat bag'rinda birlashtirdi. Aslida ham biz doim ona tabiat, atrof-muhitning sofigi va barqarorligini saqlashga intilib keldigan xalqimiz. “Yaxshidan bog' qoladi” degan ibora qon-qonimizga singib ketgani ham bejiz emas.

Agar “Avesto” kitobida tabiatga, tuproqqa, o'simlik, suvga, hayvonlarga qanday munosabatda bo'lish haqida so'z yuritilganini inobatga olsak, ekologik tarbiyaning ildizlari juda qadim davrlardan boshlanganiga guvoh bo'lamiz. Zahiriddin Muhammad Boburning shoh asari “Boburnoma”da ham bayon etilgan tabiat manzaralari, o'simliklar, shirin mevalar, hayvonot olami, yilning fasllari haqidagi bebaho ta'rifu tavsiflar uni o'qigan odamni hanuz mutaassir etmay qo'ymaydi. Demak, tabiatga ana shunday mehr bilan munosabatda bo'lish, yurtimizni bog'u bo'stonga aylantirish bugungi avlodning asosiy vazifalaridan. Zero, tinch-osoysizta yurtimizga, farovon hayotimizga bu yanada ko'r'k va baxtiyorlik baxsh etadi.

Nazira MATYOQUBOVA,
O'zbekiston Respublikasida
xizmat ko'rsatgan jurnalist.

“O'zsanoatqurilishbank” ATB:

XUSUSIY TIBBIYOT RAVNAQI SIFATLI
VA MALAKALI XIZMAT KO'RSATISHGA
SHAROIT YARATADI

Mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan keyingi yillarda xalqimiz turmush farovonligini yuksaltirish, shu maqsadda tadbirkorlik, uning istiqbolli tarmoqlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotir. Ayni jarayonda “O'zsanoatqurilishbank” ATB ko'magida ishga tushirilayotgan tadbirkorlik loyihalari ham bu boradagi ezu tashabbuslarni hayotga tatbiq etishda muhim omil bo'lmoqda.

Moliya muassasalarida

Yurtimiz OAV vakillari uchun uyushtirilgan navbatdagi press-turda bankning imtiyozli krediti evaziga o'tgan yilning bahorida Toshkent shahrida ish boshlagan “Mediart” xususiy klinikasi faoliyati bilan yaqindan tanishildi.

Zamonaviy tibbiyot muassasasiga bankning 2 milliard so'm miqdoridagi krediti evaziga xorijdan eng so'nggi rusumdagi laboratoriya-dagnostika jihozlari, asbob-uskunalar olib kelib o'rnatildi. Hozirda markazda bemorlarga ginekologiya, nevropatologiya, reproduktologiya, kosmetologiya, LOR kabi 50 ga yaqin yo'nalishlarda malakali xizmat ko'rsatiladi. Mutaxassislarining 10 nafardan ziyodi oliy toifali shifokorlar bo'lsa, 25 nafari ko'p yillik tajribaga ega o'rta tibbiyot xodimlaridir.

Xususiy klinikada kuniga o'rta 120 — 150 nafar bemorga kasalliklarni erta aniqlash, bexato tashxis qo'yish bo'yicha xizmat ko'rsatish imkoniyati mavjud. Shuningdek, bu yerda o'rnatilgan laboratoriya jihozlari yordamida buyurtma asosida boshqa xususiy klinikalar bemorlari uchun turli tibbiy tahlillar o'tkazib boriladi.

O'z navbatida, o'tgan qisqa davrda ikki mingdan ortiq ayollarimizda bachadon saratoni kasalligini erta aniqlash va profilaktikasi borasida quvonarli yutuqlarga erishildi. Shu bilan birga, kasallikka aniq tashxis qo'yish va tibbiy muolajalar orqali yuzlab oilalar a'zolari bepushtlikdan davolanib, ularning ko'p yillik orzulari amalga oshishiga ko'maklashildi va farzandli bo'lish quvonchi ulashildi.

— Prezidentimizning tibbiyot xodimlari bilan o'tkazgan ochiq muloqoti bizga motivatsiya berib, yangi yutuqlar sari dadil qadam tashlashga undadi, — deydi xususiy klinika bosh shifokori Go'zal Hayitboyeva. — Shu bois faoliyatimizni kengaytirish bo'yicha biznes-reja ishlab chiqib, Yashnobod tumani hokimligi hamda “O'zsanoatqurilishbank”ning Yashnobod tumanidagi bank xizmatlari markaziga taqdim etdik. Bank tomonidan qisqa fursatda kredit ajratib berildi.

Tibbiyot muassasasi rahbarining qayd etishicha, 2024-yilda biznes-rejaning ikkinchi bosqichini amalga oshirish rejalashtirilmoqda. Bank krediti yordamida keyingi yili klinikaga qo'shimcha bino qurilib, murakkab jarrohlik amaliyotlari o'tkazish uchun ixtisoslashtirilgan markaz foydalanishga topshiriladi. Shu maqsadda Janubiy Koreya, Hindiston tibbiyot muassasalari bilan faol hamkorlik qilish ko'zda tutilmoqda.

Muhimi, qatnov va yotib davolanish uchun qulay sharoit yaratilishi tufayli qo'shimcha 50 ta yangi ish o'рни ochiladi. Mutaxassislarimiz dunyoning yetakchi tibbiyot klinikalarida doimiy malaka oshirish, o'zaro hamkorlikda jarrohlik amaliyotlari o'tkazib borish imkoniga ega bo'lishadi.

Bugun tibbiyotda laboratoriya tahlillari muhim ahamiyatga ega ekanligi hech kimga sir emas. Markazda o'rnatilgan jihozlar kuniga 1-1,5 mingta tahlil o'tkazish imkonini beradi. Yana bir qulayligi — bemorga bunday tahlillar javobi tez fursatda yetkaziladi.

— Hozirda to'rtinchi farzandimga homiladorman, — deydi Yashnobod tumanida



istiqomat qiluvchi Madina Bo'riyeva. — Yashash manzilingma yaqinligi sababli o'zim va tug'ilajak farzandimning sog'lig'i doim shifokorlar nazoratida. Ehtiyoj tug'ilganda klinika shifokorlari bilan onlayn tarzda muloqot qilib, kerakli muolajalarni ham olish mumkin. Aynan ana shu kabi qulayliklari tufayli ham biz mazkur klinika xizmatlaridan foydalanamiz.

Ginekolog Nargiza Karimovaning ma'lum qilishicha, shifokor uchun onaga farzand kutayotgani haqidagi xushxabarni yetkazishdan ortiq baxt yo'q. Axir bolajon xalqimizning hayoti to'kisligi, oila baxti shirinshakar farzand umidi bilan bog'liq.

Klinikada kosmetologiya sohasida ham o'nlab xizmatlar ko'rsatilib, teri yuzasidagi ortiqcha hollar, chandiqlarni davolash, yuzteri parvarishi, opa-singillarimizning yanada go'zal va malohatli bo'lib yurishlariga ko'maklashilmoqda.

Press-tur doirasida jurnalistlar klinikada yaratilgan qulayliklar, laboratoriya tahlillari va kasallikka tashxis qo'yish jarayonlari hamda muassasaning o'ziga xos afzal jihatlari bilan yuzma-yuz tanishish imkoniga ega bo'ldi.

Botir MADIYOROV

(“Xalq so'zi”).

Xizmatlar litsenziyalangan.

REKLAMA

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

vakant (bo'sh) professor-o'qituvchilar lavozimlariga tanlov e'lon qiladi.

MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARI FAKULTETI.

1. Biotexnologiya kafedrası: dotsent (2), katta o'qituvchi (1);
2. Biotibbiyot muhandisligi kafedrası: assistent (3);
3. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi kafedrası: katta o'qituvchi (1);
4. Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti kafedrası: professor (1), dotsent (2), katta o'qituvchi (2);
5. Umumiy kimyo kafedrası: dotsent (2), katta o'qituvchi (1), assistent (1);
6. Sanoat dizayni kafedrası: katta o'qituvchi (1).

NEFT VA GAZ FAKULTETI

1. Neft-gazni qayta ishlash obyektlari kafedrası: katta o'qituvchi (3), assistent (1);
2. Neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish kafedrası: assistent (3);
3. Neft va gaz sanoati mashina va jihozlari va quvur-transport tizimlari kafedrası: kafedra mudiri, katta o'qituvchi (2), assistent (1);
4. Chet tillar kafedrası: kafedra mudiri, dotsent (2), katta o'qituvchi (3), o'qituvchi (2).

ELEKTRONIKA VA AVTOMATIKA FAKULTETI

1. Axborotlarga ishlash berish va boshqarish tizimlari kafedrası: dotsent (1), katta o'qituvchi (2), assistent (1);
2. Metrologiya, texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish va sertifikatlashtirish kafedrası: dotsent (1), assistent (1);
3. Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish kafedrası: dotsent (1), assistent (2);
4. Raqamli elektronika va mikroelektronika kafedrası: katta o'qituvchi (1);
5. Elektron apparatlarni ishlab chiqarish texnologiyasi kafedrası: dotsent (1);
6. Lazer texnologiyalari va optoelektronika kafedrası: dotsent (1), assistent (1);
7. Axborot texnologiyalari kafedrası: katta o'qituvchi (1);
8. Radiotexnik qurilmalar va tizimlar kafedrası: dotsent (1), katta o'qituvchi (2), assistent (2);
9. O'zbek tili va adabiyoti kafedrası: dotsent (1).

ELEKTR ENERGETIKASI FAKULTETI

1. Elektr stansiyalari, tarmoqlari va tizimlari kafedrası: professor (1), dotsent (1), katta o'qituvchi (1);
2. Elektr ta'minoti kafedrası: katta o'qituvchi (2);
3. Hidroenergetika va gidravlika kafedrası: katta o'qituvchi (1);
4. Elektr texnikasi kafedrası: dotsent (1), katta o'qituvchi (2), assistent (2);
5. Alternativ energiya manbalari kafedrası: dotsent (1), katta o'qituvchi (1), assistent (1);
6. Falsafa va milliy g'oya kafedrası: katta o'qituvchi (1).

ISSIQLIK ENERGETIKASI FAKULTETI

1. Sanoat issiqlik energetikasi kafedrası: kafedra mudiri, dotsent (1), katta o'qituvchi (1);
2. Termodinamika va issiqlik texnikasi kafedrası: katta o'qituvchi (1), assistent (1);
3. Atom elektr stansiyalari kafedrası: professor (1);
4. Energiya tejamlorligi va energetika auditi kafedrası: katta o'qituvchi (1).

GEOLOGIYA-QIDIRUV VA KON-METALLURGIYA FAKULTETI

1. Konchilik ishi kafedrası: professor (1), katta o'qituvchi (2);
2. Ko'mir va qattamlari konlar geotexnologiyasi kafedrası: kafedra mudiri, dotsent (1), katta o'qituvchi (1);
3. Metallurgiya kafedrası: kafedra mudiri, katta o'qituvchi (1), assistent (2);
4. Hayot faoliyati xavfsizligi kafedrası: professor (1), dotsent (1), katta o'qituvchi (2), assistent (1);
5. Foydali qazilma konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi kafedrası: dotsent (1);
6. Geologiya, mineralogiya va petrografiya kafedrası: kafedra mudiri, professor (1), dotsent (1), assistent (1);
7. O'zbekiston tarixi kafedrası: dotsent (1), assistent (2);
8. Pedagogika va psixologiya kafedrası: katta o'qituvchi (2), assistent (1).

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 1141.32 572 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:

Devonxona 71-259-74-51; ko'itibay 71-259-74-53;

e'lonlar 71-259-74-55.



Tahriyrga kelgan qo'yozmalar taqrig qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahriyriyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:

100066,

Toshkent shahri,

Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.

Navbachi muharrir B. Madiyorov.

Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:

Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 22.35 Topshirildi — 23.45

1 2 3 4 5 6